

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasи" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Tairov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabihev</b>	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
<b>P.A.Arslonzoda</b>	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir .....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli .....	424
<b>X.T.Mirzaev</b>	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



УО'К: 94(575.1):32

**“TURKISTON VILOYATINING GAZETASI” DA QO‘QON XONLIGINING BOSIB  
OLINISHIGA OID MA’LUMOTLAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ ДАННЫХ О ЗАВОЕВАНИИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА В  
“ТУРКЕСТАНСКОЙ ОБЛАСТНОЙ ГАЗЕТЕ”**

**ANALYSIS OF DATA ON THE CONQUEST OF THE KOKAND KHANATE IN THE  
TURKESTAN REGIONAL NEWSPAPER**

Mirzayev Dalerjon G‘anijon o‘g‘li 

Fanlar Akademiyasi tarix instituti tayanch-doktoranti

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligining bosib olinishi va tugatilishi “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalaridagi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Gazetada Turkiston general-gubernatorligining Qo‘qon xonligi bilan olib borgan aloqlari, Qo‘qonda boshlangan qo‘zg‘alon oqibatida xonlik o‘zining yirik hududidan ayrilishi, keyinroq esa xonlikning tamoman tugatilishi va uning o‘rnida Farg‘ona viloyatining tahlil etilishi, sobiq xonlar va qo‘zg‘olon yetakchilarining keyingi taqdiri, shuningdek bosqinning oqibatlari kabi masalalar davriylik (xronologik) tarzda bayon qilinib xulosalar berilgan.*

*Аннотация*

*В данной статье исследуется завоевание и ликвидация Кокандского ханства Российской империей на основе сведений со страниц “газеты Туркестанского края”. В газете периодически (в хронологическом порядке) излагаются такие вопросы, как отношения Туркестанского генерал-губернаторства с Кокандским ханством, потеря ханством значительной территории в результате восстания, начавшегося в Коканде, а затем окончательная ликвидация ханства и создание на его месте Ферганской области, дальнейшая судьба бывших ханов и лидеров восстания, а также последствия вторжения*

*Abstract*

*This article examines the conquest and liquidation of the Kokand Khanate by the Russian Empire based on information from the pages of the newspaper of the Turkestan region. The newspaper periodically (in chronological order) outlines such issues as the relations of the Turkestan Governor-General with the Kokand Khanate, the loss of a significant territory by the khanate as a result of the uprising that began in Kokand, and then the final liquidation of the khanate and the creation of the Ferghana region in its place, the fate of the former khans and leaders of the uprising, as well as the consequences of the invasion*

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, Turkiston general-gubernatorligi, Xudoyorxon, Nasriddinbek, Po‘latxon, Abdurahmon oftobachi, xonlikning tugatilishi, Rossiya imperiyasi, milliy ozodlik harakati, rus bosqini.

**Ключевые слова:** Коканская ханская, Туркестанский генерал-губернатор, Худоёр-хан, Насридинбек, Полат-хан, Абдурахман Афтобачи, прекращение ханства, Российская империя, национально-освободительное движение, российское вторжение.

**Key words:** Kokan Khanate, Turkestan Governor-General, Khudoyor Khan, Nasriddinbek, Polat Khan, Abdurakhman Aftobachi, termination of the Khanate, Russian Empire, national liberation movement, Russian invasion.

**KIRISH**

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo hududlarini egallashga qaratilgan bosqinchilik yurishi Qo‘qon xonligidan boshlandi. Avvalgi mag‘lubiyatlar va yo‘qotishlar imperiya hukumatini ancha ko‘zini ochdi. Shu bois ham bu galgi yurishlari puxta tayyorgarlik bilan amalga oshiganligi ular amalga oshirgan ishlardan ma’lum.

Hiylagar va harbiy texnikaviy jihatdan ustun bo‘lgan imperiya qo‘sni Oqmasjid qal‘asini (1853), Turkiston, Chimkent (1864), Toshkent (1865) kabi Qo‘qon xonligining muhim shaharlarini egalladi. Toshkent Rossiya imperiyasi muhim strategik maqsadlarida asosiy shahar qilib tanlab olindi. Shu bois ham, imperiya hukumati Turkiston general-gubernatorligini tashkil etganda (1867) uning boshqaruvi markazini Toshkent qilib belgiladi. Rossiya imperiyasi Turkistondagi ushbu

hukumatiga katta vakolatlar berdi. Turkiston general-gubernatorligining xonliklar bilan aloqalari Toshkentdan turib olib borildi. Bu haqidagi ma'lumotlar o'z davrining muhim manbalaridan biri bo'lgan "Turkiston viloyatining gazeti" da ham aks etgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Turkistondagi xonliklarni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olish jarayonlari birinchi navbatda rus sayyoohlari, geograflari hamda turli lavozimda ishlagan harbiylarning esdaliklarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida ham bu jarayonlar birmuncha yoritilgan. Rus tarixchilari asarlari va gazetadagi maqolalar bir xil uslubda yozilgan. Dastlab, Turkiston mintaqasining geografik joylashuvi, aholisi, iqlimi haqida qisqa ma'lumotlar berilib, undan so'ng tarixiy voqealar davriylilik tarzida ketma-ketlikda bayon etiladi. Sovet davri tarixchilari esa sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashib mavzuni yoritishga intilgan bo'lsa, mustaqillik davri tarixchilari xolisona tarzda bosqin va uning oqibatlarini tahlil qilganlar. Bunda Rossiya imperiyasining bosqini keskin qoralanadi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

"Turkiston viloyatining gazeti" nashr etish boshlangan paytda gazetada dastlabki bosib olingan hududlar haqidagi ma'lumotlar bilan birga, Qo'qon xonligi bilan olib borilgan aloqalar haqida ham ma'lumotlar berib borilgan. Gazeta maqolalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, 1871-yilga kelib xonlik va general-gubernatorlik o'tasidagi aloqalar barqarorlashgan. Shu yilning yanvar oyida Turkiston general-gubernatori o'z elchisini Qo'qon xonligiga yuborgan. Elchi Xo'jand, Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Andijon kabi shaharlarda bo'lib, general-gubernator maktubi va hukumatning takliflarini ma'lum qilgan. Unga ko'ra xon Rossiya bilan yaxshi aloqlarni saqlab qolsa, o'z navbatida imperiya hukumati ham xonlikka yordam qo'lini cho'zishi, bordi-keldi aloqalarini kengaytirishi, Rossiya imperiyasi xonlikni tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishini ma'lum qilgan [13]. Elchiga xonlikdan Mirzo Hakim dodxoh hamrohlilik qilgan. U Qo'qon xonligi shahzodasi Nasriddinbek qabulida ham bo'lgan. Nasriddinbek bilan yaxshi aloqlarni yo'nga qo'yishga intilgan.

Gazetada Nasriddinbekni: "xondan keyingi ikkinchi shaxs va Rossiya imperiyasi bilan urushish foydasiz deb hisoblaydigan kishi deb ta'riflangan" [13]. Shu bois shahzoda haqida ko'proq ma'lumot yig'ishga intilgan. Imperiya hukumati tomonidan shahzodaning bunday qarashlari ijobjiy baholangan. Qo'qon xonligini boshqaruvini otasidan shahzodaga olib berish orqali o'ziga tobe hukumdorni yaratish maqsadi bilan Nasriddinbekni yaxshilab o'rganish topshirig'i berilgan bo'lishi mumkin.

Elchi haqida gazetada berilgan ma'lumotlardan uning faqatgina elchi emas missioner, ma'lumot yig'uvchi ekanligi ham ayon bo'ladi. Chunki u Farg'ona vodiysining O'sh, O'zgan va Oloy tog'igacha bo'lgan hududlardan tashqari, barcha joylarni kezib, shaharlar, undagi aholi, mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar to'plagan. Shuningdek, xonlikdagi yuqori martabali kishilar bilan munosabatlarini mustahkamlab borgan.

Gazeta maqolalari tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi elchilikdan bir yil o'tib (1872-yil yanvar) Qo'qon honining elchisi Mirzo Hakim dodxoh boshchiligidagi elchilik Toshkentga yuborilgan. Ammo gazetada uning maqsadi ochiqlanmagan [15]. Mazkur gazetadagi maqolalardan xulosa qilib aytish mumkinki, imperiya manfaatlari va mafkurasi nuqtai nazaridan xabarlar, maqolalarni nashr etgan. Shu jihatdan qaralsa 1871–1872-yillardagi Qo'qon xonligi va Turkiston general-gubernatorligi o'tasidagi elchiliklarni hammasini ham matbuotda ochiqlanavermagan.

Mirzo Hakim dodxoh elchilikidan so'ng Xudoyorxonning yana bir elchisi Toshkentga yuboriladi. Unga xonning o'g'li Nasriddinbek boshchilik qilgan. Gazetadagi ma'lumotga ko'ra, bu elchilik tarkibini 300 ga yaqin odam tashkil qilib, ular Xo'jand shahri, Piskent orqali o'tib Toshkentga yetganlar. Nasriddinbekni har bir shaharda general-gubernatorlikdan qo'yilgan amaldorlar kutib olib kuzatib qo'yganlar. Toshkent shahriga yaqin kelgach (Qo'yliq mavzesidan) Astroviy va mayor Adirkas bir qism askar bilan kutib olgan. Salar arig'iga yetgach esa Toshkent shahar hokimi Midinskiy qarshi olgan [15].

Nasriddinbek Turkiston general-gubernatori va shahar bayonlari bilan ko'rishgach, uning sharafiga ziyorat tashkil etilgan. Ziyoratda fon Kaufman Xudoyorxonni sharaflab Pyort I ga o'xshatgan [4: 106-107]. Bu ham fon Kaufmanning siyosiy nayrangi bo'lib qo'l ostidagi xonlikni o'z izmida tutib turishda xonga yon bergandek ko'rsatish edi.

## TARIX

Elchilar 1872-yilning 13-fevralida Qo'qonga qaytgan. Ular bilan birga general-gubernator ishonchli kishilarini Qo'qonga yuborgan<sup>24</sup>. Keyingi jarayonlar haqida gazetada maqolalar nashr etilgan. Biroq unda siyosiy masalalar aks etmagan bo'lib, Toshkentga yuborilgan elchilarning ko'plab sovg'a salomlar keltirganligi tilga olinadi [17].

Imperiya hukumati Qo'qon xonligini keyingi taqdirini urushsiz hal etishni asosiy maqsad qilgan. Qo'qon xonligidan yuborilgan elchilarga imkon qadar imperiyaning ulug'vorligini ko'rsatishga harakat qilingan. Ularni imperiyaning turli nishonlari bilan taqdirlangan. Xususan, elchisi Mirzo Hakim parvonachi ikkinchi darajali Stanislafskiy nomli orden va "yulduz" nishon bilan taqdirlagan [16]. Bu bilan xon elchisidan o'z maqsadi yo'lida foydalanishni ko'zlagan. Ularga o'z talablarini yetkazish vositasi sifatida foydalanganlar. Matbuotda bu jihatlar ochiqlanmagan bo'lsada, xonlikdagi ro'y berayotgan voqealar ana shu fikrlarni tasdiqlaydi. Xususan, "Turkiston viloyatining gazeti" 23-sonida 1868-yil 13-fevralida Xudoyorxon Rossiya bilan jang qila olmasligini tushunib yetib imperiya hukumati tayyorlagan shartnomani imzolashga majbur bo'lganligi va shundan keyin savdo aloqalar rivojlanganligi yozilgan [16]. Bu o'rinda imperiya hukumati savdo aloqalaridagi o'z talablarini xonga o'tkaza olganligidan dalolat beradi.

Fon Kaufman Buxoro va Xivaga yurishlar chog'ida Qo'qon xonligidan foydalangan. Ya'ni "Bo'lib tashla hukmronlik qil" tamoyiliga amal qilgan holda matbuotda Xudoyorxonni Xivaga yurishlarda imperiya qo'shnini qo'llab-quvvatlagani sharaf bilan tilga olinadi [18]. Shuningdek, Qo'qon xonligi elchisi Mirzo Hakim parvonachi imperiyaning Xiva xonligiga yurishi paytida ham ishtirok etganligi haqida matbuotda ma'lumot berib o'tilgan.

Xiva yurishida u bilan birga qatnashgan amerikalik jurnalist Mak Gahan u haqida: "U rus tilida gapiradi, Sankt-Peterburgda qishni o'tkazdi va uning (Sankt-Peterburgning) moda jamiyatiga aralashdi, shampan (vino) ichadi, sigaret chekadi, karta o'ynaydi va qisqasi juda madaniyatli" [15], deb ma'lumot bergen. Bu ta'rif yevropaliklarning madaniyat haqidagi tushunchalarini ko'rsatadi. Turkistonliklar orasida esa yot madaniyatning kirib kelishini anglatadi. Bu bilan imperiya hukumati turli yo'llar bilan o'z madaniyatini ham targ'ib etib borganligini ko'rsatib beradi.

Gazetaning 1874, 1875, 1876-yillardagi sonlarida Qo'qon xonligidagi ichki ziddiyatlarga ham katta urg'u berilgan. Xususan Xudoyorxonning olib borayotgan siyosatidan norozi bir guruh amaldorlarning xonni taxtdan ag'darib Olimxonning nabirasi Po'latbek va Abdukarimni taxtga o'tqazishga bo'lgan urinishlar, Po'latxon qo'zg'aloniga oid voqealar yoritib borilgan. Soxta Po'latxonning asliyati haqida, "andijonlik bo'ston urug'idan bo'lgan Mulla Is'hoq degan bir yigitni ko'rib, uni o'zlar bilan Chotqolga olib borib "Biz Samarqanddan Otaliqni o'g'li Po'latbekni olib keldik" deb haloyiqqa jar solishadi" [8], deb yoziladi.

Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligidagi ozodlik kurashlaridan qutilish, xonlikni to'la nazoratga olish uchun Po'latxon qo'zg'onlonidan unumli foydalandi. Uning ornida Farg'ona viloyatini tuzdi. Qo'zg'olon bostirilgach gazeta sahifalarida undan avvalroq bo'lgan voqealarga to'xtagan maqolalar ko'paydi. Bunga misol qilib uning kelib chiqishi va qanday qilib qo'zg'onning rahbarliga aylanganligi haqidagi gazeta maqolalarini keltirish mumkin. Gazetada Po'latbekni soxta ekanligini xalqqa bildirish uchun o'z sahifalarida Po'latbekning hayotiga oid ma'lumotlarni bosa boshlagan. Unga ko'ra: 1779–1792-yillarda Qo'qon xonligida Norbo'tabiy, undan keyin o'g'li Alibek<sup>25</sup> 1801-yilgacha, uning vafotidan so'ng esa kichik ukasi xonlikga ko'tarilganligi haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek xonlikdagi taxt o'yinlari gazeta sahifalarida yoritib borilgan. Bu voqeylek 1844-yilda Xudoyorxonning taxtga chiqishigacha tasvirlanib, keyingi voqealar Otaliq xonning<sup>26</sup> avlodи Po'latbekka bog'langan. Po'latbekning Xudoyorxon hibsidan ozod etilgach butun hayotini Xo'ja Ahror madrasasida o'tkazgan deb ma'lumot beriladi. Bu orqali xonlikda ko'tarilgan qo'zg'onlonning yetakchisi sohta Po'latxon ekanligi ko'rsatib berishga harakat qilingan [8]. Ushbu tadbir imperiya hukumatiga qo'zg'onlonning safi kengaymasligi uchun zarur edi. Chunki bu qo'zg'alon nafaqat xonga, birinchi navbatda imperiya hukumatiga qarshi ko'tarilgan edi. Qo'zg'olon

<sup>24</sup> Gazeta ma'lumotiga ko'ra, ushbu elchilar bilan general-gubernatorlikdan starshina Berx va Shohimardon Ibrohimov yuborilgan [6].

<sup>25</sup> Alibek yoki Alixon — Norbo'tabiyning katta o'g'li bo'lib undan keyin taxtga o'tirgan lekin uzoq muddat taxtda qolmagan.

<sup>26</sup> Otaliq — Alixonning o'g'li, lekin Amir Umarxon taxtga ko'tarilgan so'ng taxtga da'vo qilmasligi uchun uni Qorateginga jo'natib yuborgan.

haqidagi voqealar, Xudoyorxonning taxtdan vos kechib Toshkentga kelishi va fon Kaufmanning unga munosabati matbuotda atroflicha to'xtalingan [4: 107].

"Turkiston viloyatini gazeti"da Qo'qon xonligidagi qo'g'oltonni boshida turgan shaxs sifatida Abdurahmon Oftobachi nomi tilga olingan. Abdurahmon Oftobachi haqida gazetaning 1875-yilgi 26-sonida bat afsil yozilgan bo'lib, unda Oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag'darib o'mniga Nasriddinbek o'tqazib xonlikni amalda o'zi boshqarishga intilganligi yozilgan. Oftobachi o'zining qo'shini yordamida Qurama uyezdidiagi Samfir va Oblik qishloqlarini egallab olgan. Xo'jand shahrida Toshkentga boradigan pochta yo'llini to'sib imperiya hukumatiga qarashli stansiyaga o't qo'yan. Oftobachining qo'shinlari Piskentgacha yetib kelgan [31].

Qo'qonda xon qochib ketgan va tartibsizliklar hali ham tugamagan bir paytda Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Toshkent va unga yondosh hududlarni ruslardan tozalash uchun tog'ning narigi tomoniga o'tib bir necha qishloqlarga hujum qilib ularni ozod qilishgan. 1875-yilning 1-avgustida 5 mingga yaqini tog' yo'li bilan Ohangaron mavzeyiga kelib, mazkur mavzedagi rus askarları bilan to'qnashgan. Gazeta sahifalarida ushbu to'qnashuv natijalari tasvirlanib Po'latxon boshchiligidagi qo'shining ko'plari o'ldirilgani, qolganlari Xo'jand tomonga qochib ketishgani aytib o'tilgan [14]. General Kolavchovning xabarida mazkur to'qnashuvdagi Sibir otliq kazak guruhiga podpolkovnik Ilgoshtin boshchilik qilganligi bayon qilinadi. Ikki o'rtada bo'lgan to'qnashuvda qo'zg'olonchilardan 500 nafari o'ldirilgan va 300 nafari jarohatlanib qochib ketganligi hamda ularning ko'plab qurol yarog'larini qo'lga kiritganliklari aytildi [22]. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman ushbu milliy ozodlik harakatini bostirish uchun 12-avgustda Xo'jandga borgan [24].

Aytish joizki, mazkur qo'zg'alondagi to'qnashuvlar masalasi "Turkiston viloyati gazetası"da yoritilar ekan asosiy e'tibor imperiya qo'shinlarining ustun kelganligi va qo'zg'alonchilarning mag'lubiyati ko'proq tilga olingan. Maqolalar mazmunidan va kechgan jarayonlarda imperiya qo'shning bir joyda ko'p turib qolishlari bu qo'zg'olonchilarning o'ziga xos katta kuchga ega ekanligi va ularni ma'lum o'rinnarda ustun kelganliklari deyish mumkin. Chunki, imperiya qo'shni Xo'jandda ko'p vaqt to'siqqa uchraganligi va imperiya qo'shniga qo'shimcha kuch yuborilganligi haqida gazeta maqolalarida ma'lumotlar aks etgan [11].

Xo'janddagи qo'zg'olonchilar qarshi kurashda Birinchi Turkiston o'qchi batalyoni, Orenburg qo'shining 4 ta otliq to'pchilari, 100 kazak va boshqa harbiy qismlarni qatnashgan. 1875-yil 21-avgust kechasi polkovnik Skobelev boshchiligidagi askarlar esa Parkent hududidagi qo'zg'alonchilarga qarshi yuborilgan [2: 341]. Keyingi harakatlar qo'zg'alonni tamoman bostirishiga qaratilib Xo'jandni qayta egallagan fon Koufman qo'shni, ushbu yerga Qo'qon tomon yurish uchun to'planadi. Unda 16 rota piyoda askar, shu jumladan bitta sapyor rotasi, 20 to'p, 900 otliq askar va 8 raketa uskulalari jamlagan edi [2: 342].

Xo'jandda yetarlicha kuch to'plangandan so'ng fon Kaufman o'z qo'shinlari bilan Qo'qon tomoniga otlangan. Fon Kaufman Xo'jand shahridan chiqib Isfara, Mahram qo'rg'oniga qadar kichik pistirma janglarga va to'siqlarga uchragan. Gazeta sahifalarida keyingi voqealarda ham rus qo'shinlarining kuch qudrati va yutuqlari ko'proq tilga olingan. Xususan, Kolupakov boshchiligidagi bir qism imperiya qo'shni yarim soat ichida qo'qonliklarni mag'lub qilgani yoziladi. O'lja sifatida 39 ta zambarak, son sanoqsiz miliqlar, o'q dorilar va ko'p miqdorda g'allani qo'lga olishganligi haqida ma'lumot berilgan [7]. Mahram qalasidagi qo'zg'olonchilar va imperiya qo'shni o'rtasidagi kurash bat afsil tahlil etilgan va imperiya qo'shning g'alabasi ko'rsatib berilgan [23]. Ushbu to'qnashuvda eng ayanchli tomoni rus qo'shinlari qo'zg'olonchilarni asirga olishni ham o'ylamagan, barchasini qirg'in qilgan. Kaufmanning Rossiya imperiyasi harbiy vaziriga bu haqida: "Mahram ostonasidagi qirg'in Qo'qon xonligining taqdirini hal qildi" [1: 87], deb yozadi.

Fon Kaufman Qo'qonga borgunga qadar hech bir to'siqqa uchramadi. Bu qo'zg'olon Qo'qon xonligini tamoman tugatishga bahona bo'lganligi matbuotdagi ayrim maqolalarida o'z ifodasini topgan. Chunki qo'zg'alon tamoman bostirilmagan va Qo'qon to'la egallanmagan bo'lsa-da, aholidan soliq undirish va uning taxminiy miqdorini chiqarilgannini ko'rish mumkin. Gazetada yozilishicha Qo'qonda jami 700 ming aholi bo'lib o'z xoniga yiliga 800 ming so'm pul va 30 million chetvert g'alla topshirganlari yozilgan. Ular urush natijasida o'ziga qo'shilgan yerlarda ikkita katta shahar borligi birida 60 ming ikkinchisida 20 ming odam yashashini hisobga olib taxminiy foyda haqida mulohaza yuritganlar [23].

## TARIX

Gazetada yozilishicha Nasriddinbek Qo'qon shahriga 29 avgustda kirib kelgan fon Kaufmandan o'zini avf etishini so'rab Mahramdag'i janglarga aloqasi yo'qligi buning barchasiga Abdurahmon Oftobachi aybdor ekanligini, Qo'qon fuqarolari tinchlikni xohlashlari, Abdurahmon Oftobachi e'lom qilgan g'azotda asosan qirg'izlar va qipchoqlar qatnashganligini aytgan [25]. Aynan shu voqeadan so'ng Nasriddinbek va qo'zg'olonchilar orasida bo'linish yuz beradi. Nasriddinbekning taslimchilik siyosati qo'zg'olonchilarga xush kelmaganligi uchun ular qurolli kurashni afzal ko'rishgan.

Turkiston general-gubernatorligining qo'zg'alonchilarga qarshi keyingi harakatlari Andijon va Marg'ilon hududlariga qaratilgan. Bu jarayonda imperiya qo'shni mislsiz xunrezliklarni qildi. Jumladan, 8-yanvar kuni Andijon shahriga kirgan Skobelev boshchiligidagi imperiya qo'shni shahar devorlarini vayron qilgan. Shaharni to'plardan kechayu kunduz o'qqa tutgan va 9-yanvar Andijonni to'liq egallab olgan [31].

Fon Kaufman yana ham ko'proq yerkirish uchun general-mayor Troitskiyi askarlari bilan Andijondagi qo'g'alonchilar ustiga yuborgan [9]. U qo'shnini ikkiga bo'lib Skobelev va polkovnik Mili Komiliyskiyi qo'zg'alonchilarga qarshi yuborgan. Mazkur ikki guruh askarlarning har birlarida to'p bo'lib shaharning ikki tarafidan o'qqa tutib kuchli to'siqlarga qaramay rus askarlari shaharning o'r dasigacha kirib borgan. Shaharga kirgan general-mayor Troitskiy tinch aholini ham ayab o'tirmadi. U shahar aholisini qipchoqlarga yordam berganlikda ayblab o'z askarlari shaharga o't qo'yishni buyurgan. Bu ham yetmagandek Troitskiy Skobelevga o't ichida qolgan shaharning atrofiga joylashib tinmay to'plardan o'qqa tutishni va shahardan kim qochib chiqsa ularni ham otib tashlashni buyurgan. Shaharni to'pdan o'qqa tutish kuni bilan davom etgan va kechki payt bir oz tanaffusdan so'ng yana 70 marotaba shaharga to'plardan o't ochilgan. Bu ham yetmaganidek Troitskiyning farmoyishi bilan polkovnik Skobelev 150 otlig va bir rota askar bilan yarim kechasi yong'indan va to'plardan omon qolgan 2 mingga yaqin qipchoqlarni uxbab yotgan joyida hujum qilib barchasini o'ldirgan [9]. Mana bu voqealor orqali mustamlakachilik siyosati o'zining eng jirkanch va eng beshavqat yuzini ko'rsatdi.

Fon Kaufman Marg'ilonni bo'ysundirgandan so'ng Otaqul Botirboshi degan odamni shaharga boshliq qilib tayinlaydi. Boshqa hududlarga ibrat bo'lsin deb Marg'ilon va unga tobe hududlarga 125 ming tilla (har bir tillaning miqdori 3 so'm 80 tiyindan bo'lgan) miqdorida tovon solindi [1: 88]. Marg'ilon aholisi mazkur tovonning 60 ming so'mini yig'ib berishgan va qolganini keyinroq to'lashga general-gubernatorga va'da bergen [21].

Marg'ilon va Andijondan qo'zg'olonchilar chiqarib yuborilgach, 28-sentyabrda Qo'qon xoni Nasriddinbek general-gubernatorning 28 moddalik shartnomasiga qo'l qo'yishga majbur bo'lgan. Shartnomaga ko'ra Sirdaryoning o'ng tarafidagi Onxo'ra degan joydan Noringacha bo'lgan barcha yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilgan va fon Kaufmanning buyrug'i bilan bu hududlarni boshqarish uchun adyutant polkovnik Skobelev tayinlangan [12].

Keyingi voqealar Asaka shahri atrofida davom etib gazeta sahifalarida Abdurahmon Oftobachi boshliq qo'zg'alonchilar mag'lubiyatga uchragani, ularning tarkibidagi ko'plab ishtirokchilar rus askarlari tomonidan qirib tashlangani yozilgan. Natijada, 1876-yilning 20-yanvarda Oftobachi taslim bo'lishga majbur bo'lgan. U bilan birga Botir to'ra, Asfandiyor, Xoliqqu'l parvonachi, Qozibek eshik og'asi, Normuhammad dodxoh hamda bulardan boshqa 24 (gazetaning boshqa sonida 26 ta berilgan [31]) ta amaldor va 400 nafar askari kelib Skobelevga taslimligini bildirgan. Mazkur voqealardan so'ng Skobelev Andijon fuqarolari ustiga soliq solgan bo'lib, yanvar oyining oxirida shu soliqdan 30.000 so'mi yig'ib bo'lingan [27].

General-gubernator Qo'qon xonligida "tartib" o'rnatish bahonasida ko'pgina hududlarga ega bo'ldi. Ammo ichki vaziyat hali hamon murakkabligicha qolmoqda edi. Qo'qonni rasman Nasriddinxon boshqarayotgan bo'lsada, amalda mamlakatda ikki hokimiyatçilik yuzaga kelgan bo'lib, Abdurahmon Oftobachi va Po'latxon hali ham Marg'ilon shahrida turib mazkur hudud atrofidagi bekliklardan soliq yig'ib, qo'shinini mustahkamlash ishiga sarflayotgan edilar [32].

Skobelev boshliq rus askarlarining keyingi harakati Namangandagi qo'zg'olonchilarni tarkibini bostirish va yo'q qilishga qaratildi [19]. Chunki ushbu vaqtida Abdurahmon Oftobachi qayta kuch yig'ib Namanganda turgan rus askarlari bilan jang qilish va boy berilgan hududlarni ruslardan qaytarib olish uchun qo'shishini kuchaytirib Namangandan 25 chaqirim uzoqlikda joylashgan

Gurtepa degan qishloqqa 4 mingga yaqin askarini joylashtirgan. Biroq Gazetadagi ma'lumotiga ko'ra Skobelev qo'shinlari 4 chaqirimgacha ta'qib qilib borib 100 ga yaqin odamlarni o'ldirgan. Skobelev ta'qibni to'xtatib O'jaboy degan qishloqqa keladi va Oftobachining 900 nafar atrofidagi askarining ushbu yerda joylashganidan xabar topadi.

Gazetaning 1876-yil 1-sonida ularning barchasi qizil rangda kiyim kiyaganliklari, ko'p miqdorda aravalarda yuklari borligi haqida ma'lumot berilgan [32]. Mazkur jang natijasida 600 kishini o'ldirilgan. Qolgan qo'zg'olonchilarni taqib qilgan Skobelev qo'shni ko'p qishloqlarga o't qo'ygan. Yo'lda uchragan qishloqlarda qo'zg'olonchi qo'shinlari imperiya qo'shniga qarshi chiqib, ularni chekintirishga uringan. Biroq ko'p talofat ko'rganlar. Buni quyidagi misol ham tasdiqladi. Xususan, mazkur janglardan rus qo'shidan 1 nafar zabit, 22 askar o'ldirilgan, 22 kazak askarlari yarador bo'lgan. Vatan himoyachilaridan esa 6 ming otliq va 600 piyoda askarlardan umumiyl 600 kishini o'ldirgan. Qo'zg'olonchilarning ko'plab qurol yaroqlar va tug'lari qo'lga kiritgan [32].

Matbuotdagi Po'latxon bilan bog'liq voqealarning keyingi bosqichi Uchqo'rg'on, Oloy vodiysida kechgan jarayonlarga bag'ishlangan [2: 357]. Unga ko'ra Po'latxon Uchqo'rg'ondag'i kurashlarda yengilib Oloyga chekinadi, qo'llab-quvvatlovchi kuchning yetishmaganligi bois, qo'zg'olonchilar yengilib uning rahbari qo'lga tushadi. Shu tariqa Po'latxon Marg'ilon shahrida dorga osilgan [29].

Qo'qon xonligidagi milliy ozodlik harakatining faol harakati general-gubernatori fon Kaufmanni cho'chitgan. Shu bois u Toshkentga qaytish oldidan Chustdan 28 chaqirim va Xo'janddan 102 chaqirim uzoqlikda joylashgan Oqjar degan mavzega bir qism askarni qoldirib keladi. Karvonlar va pochtachilarni turli hujumlardan saqlash uchun ham askar ajratgan [19]. Bu kabi tadbirlar Qo'qon xonligida ro'y berishi mumkin bo'lgan turli chiqishlarga qarshi harbiy qo'shinni ko'paytirishdan iborat bo'lgan.

Butun yurish davomida Qo'qonga bostirib borayotgan rus askarlari imperator tomonidan ruhlantirilib, minnatdorchilik maktublari yozib turilgan [20]. Ularning yetakchisi general-gubernator fon Kaufman esa imperator tomonidan olmos bilan bezatilgan qilich<sup>27</sup> bilan taqdirlangan [20].

Qo'qon xonligidagi milliy ozodlik harakati bilan imperiya qo'shni kurashish jarayonida uning taqdirini ham hal etishga uringan. "Turkiston viloyatining gazeti" 1875–1876-yil sonlarida xonlikni tugatish va o'rnila Farg'ona viloyatini tashkil etilishiga bag'ishlangan maqolalar ham nashr etilgan. Xususan, Turkiston general-gubernatori fon Kaufman o'z o'rnila qoldirib ketgan general-leytinant Kolpakovskiyga bergen xabarida Qo'qon xonligi hududini o'z nazoratiga olishini va unga harbiy gubernator etib general Skobelevni tayinlashni buyurgan. Ushbu hududning nomini Farg'ona viloyatiga o'zgartirilganligini xatga qo'shimcha qilgan [27].

Qo'qon to'liq rus bosqinchilarining qo'liga o'tgandan so'ng Turkiston general-gubernatori vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi Kolpakovskiy 1876-yil 14-fevralda Qo'qon shahriga kelib aholiga bundan buyon oqposhshoning qo'l ostida yashashlarini ma'lum qilgan [29]. U 1876-yil 23-fevralda Qo'qon aholisiga qilgan murojaatida 1868-yildan keyin xonlikda kechgan voqealarga to'xtalib o'tadi. Endilikda Farg'onadagi yerkarning Rossiya yerlari deb e'lon qiladi. Bu hudud Farg'ona oblasti deb ot qo'yilishi, unda Skobelevning boshliq bo'lishi, go'yoki bu imperatorning mehribonchiligi deb ta'rif berib ushbu murojaatnomaga orqali Farg'ona xalqini muborakbod etgani, yomon odamlarning gapiga kirmay tinch yashashini, podshohni panoji davlatlarida yaxshilik bilan yashashlarini aytib o'tgan<sup>28</sup>.

Gazetaning 1876-yil 7-sonida general Skobelevning boshqaruvni tashkil etish masalasi maqola sifatida berilgan. Unga ko'ra 1876-yilning 8-fevral kuni Skobelev soat 11 da Qo'qon shahrining O'rdafiga kelib viloyatni boshqarishga kirishadi. U polkovnik Baron Zakoliyskiyni Qo'qonning komendantini, mayor Sharbiyskiyni esa shaharning hokimi etib tayinlagan [28].

Farg'ona viloyati tuzilgandan keyin Turkiston general-gubernatorining farmoyishi bilan Farg'ona viloyatining hududlarida uyezdalar tashkil topdi. Ular quyidagilar edi:

1. Xo'qand uyezdi – Qo'qon atrofidagi qishloqlar va Mahram qo'rg'oni;
2. Marg'ilon uyezdi – Marg'ilon shahri va Romanovskiy uyezdi;
3. Andijon uyezdi – Andijon shahri, O'zgan va Baliqchi uyezdlari;
4. O'sh uyezdi – O'sh shahri va Buloqboshi qishlog'i;

<sup>27</sup> Qilich ustida "1875 yil 22 avgustda Qo'qon askarlariga shikast berib bahodirlik ko'rsatgani uchun berildi", degan yozuvni bo'lgan.

<sup>28</sup> Ushbu murojaatnomaga "Turkiston viloyatining gazeti" ning 1876 yil 10-mart dagi sonida batafsil berilgan.

## TARIX

5. Chimyon uyezdi – Chimyonning o‘zi va So‘x;
6. Namangan uyezdi – Namangan shahri, Koson va Chortoq;
7. Chust uyezdi – Chustning o‘zi, Bobodarxon, Mahram qo‘rg‘oni to‘g‘risidagi Sirdaryoning o‘ng tarafidagi yerlar.

Bundan tashqari Farg‘ona harbiy gubernatorligining noioblige polkovnik Baron Miller Zakominskiy tayinlandi va mayor Yosterjimski Qo‘qon shahridagi harbiy gubernatorni mirzoxonasiga boshliq etib tayinlangan. Gazetada har bir shaharga tayinlangan hokim va uning noioblari nom-ma nom sanab o‘tilgan [5].

Xonlik tugatilgandan so‘ng harbiylar va rus aholisini mazkur hududda yashashlari uchun sharoit yaratish maqsadida Qo‘qon shahrida rus dahasini qurishga kirishilgan. Qo‘qonning Isfara darvozasi va unga tutash yerlar mazkur daha qurilishi uchun ajratib olingan. Hattoki, dahan ni qo‘riqlash uchun zambaraklar o‘rnatalgan [30].

Farg‘ona viloyati tuzilgach yangi rus qishloqlarini tashkil etish ortib borgan. Xususan, 1877-yilda Andijon shahri yaqinida bir yangi rus qishlog‘i qurilib uni Kaufman nomi bilan atashgan [33]. Bu ham hududda rus aholisini ko‘paytirish orqali o‘z tayanchini mustahkamlashga qaratilgan tadbirdardan biri edi.

Bosqinchilar hali boshqaruvni to‘liq yo‘lga qo‘ymasdan darhol Farg‘ona viloyatidan kelishi kutilayotgan soliqlarni hisoblashga kirishgan. Ushbu hisob kitoblarga qaraganda 1876-yil uchun 679.000 so‘m miqdorda soliq olishni rejalashtirganlar. 1877-yilda 130.000 so‘m tushishni taxmin qilganlar. Lekin imperiya qo‘sishlariga ketgan sarf xarajatlari 3.917.000 so‘m etib belgilangan. Bu miqdor juda ko‘p bo‘lib uni qoplash uchun aholi soliqlari oshirilgan. Chunki gazeta ma‘lumotlariga ko‘ra askarlarga sarflangan xarajatlар 1878-yilning soliqlaridan qoplash nazarda tutilgan [30].

Xonlik tugatilgach undagi bir qator amaldorlar imperiyaning xizmatiga olingan. Jumladan: elchi Mirzo Hakim Parvonachi imperator farmoni bilan 1876-yil 22-mayda imperiya xizmatiga olinib, maslahatchi (deystvitelnoy sovetnik) masabiga tayinlangan. Unga xazinadan har yili 3.500 so‘m maosh tayinlangan. Shuningdek, Mirzo Hakim Parvonachi “1 darajadagi Stanislav” ordeni bilan taqdirlangan [10].

Xonlik tugatilgandan so‘ng general-gubernator fon Kaufmanga taslim bo‘lgan Xudoyorxon, Nasriddinbek va Abdurahmon Oftobachilarining keyingi taqdiri gazetada qisman yoritilgan. Masalan: Musulmonqulning o‘g‘li Abdurahmon Oftobachi xonlik tugatilgandan bir oz muddat o‘tib fon Kaufmanga xat yo‘llaydi, unda: *Yaxshi soatda borib xizmatlarig‘a ojiz bechoralik bilan janoblarig‘a andog‘ ma‘lum bo‘lsinkim janob oqpodshohning marhamatlarini men kaminaga bayon qilib ko‘rguzib Yekatirinislaf shahrig‘a bor deb amir qilib erdingiz, amirlari bilan kamina Yekatirinislaf shahrig‘a kelib ko‘rdimki shahrlari yaxshi obod, odamlari ham yaxshi ekan, yaxshiliq ko‘rdim, yomonliq ko‘rganim yo‘q. Allah rozi bo‘lsin men bisyor-bisyor xursandman doimo duolaridaman hamma vaqt marhamatlaridin umid tutarman va men bechorani xayrixohliq birla ko‘nglingizdan solmang Abdurahmon Musulmonqul o‘g‘li muhrini bosibdur. Muhrida ushbu ibora mazkurdurki, Hoji Abdurahmon Musulmonqul mingboshi o‘g‘li* [28], yozuvlari bitilgan. U Rossiya imperiyasi xizmatiga kirgan bo‘lib, 1881-yilda polkovnik unvoniga ko‘tarilgan [34].

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligiga Rossiya imperiyasining bosqinchilik yurishidan keyin o‘lkada tashkil etgan hukumati orqali uning ishlarini nazorat ostiga oldi. Buxoro va Xiva xonligiga yurishlari paytida Qo‘qon xonligining amaldagi xonlari bilan yaxshi aloqada bo‘lib elchilik aloqalarini olib bordi. Imperiya hukumati 1870-yildan keyin esa xonlikni tamoman tugatish va uning o‘rnida Farg‘ona viloyatini tashkil etish niyatini amalga oshirishga qaratdi. Bu maqsad yo‘lida xonlikdan yuborilgan elchilar va Farg‘ona vodiysida ko‘tarilgan Po‘latxon qo‘zg‘olonidan o‘z maqsadi yo‘lida foydalandi. “Turkiston viloyatining gazeti” sahifasida ushbu voqealar go‘yoki “xonlar zulmi” dan xalqni ozod qilish masalasidek ko‘rsatildi. Ozodlik uchun kurashgan xalq farzandlarini esa ig‘vo tarqatuvchiga aylantirildi. Qurol kuchining ustunligi va bir necha yillar mobaynida to‘plangan razvedka ma‘lumotlari rus bosqinchilarining ustunligi ta’minladi. Rossiya imperiyasining mazkur bosqinchilik urushlari doimiy “Turkiston viloyatining gazeti” da yoritilib unda asosan imperiya haq yo‘lda ekanligi targ‘ib qilib borildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Haydarbek Bobobekov. Qo'qon tarixi. Toshkent. 1996. 88-bet.
2. Hamid Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII – XX asr boshlari). Toshkent. 1998. 357-bet.
3. J.A. Mac Gahan. Campaigning on the Oxus, and the fall of Khiva. New York. 1874. P. 315.
4. Nosirjon Topildiev. Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqlari tarixidan (XIX asr – 1876 yilgacha). Toshkent. 2007. 106 – 107-betlar.
5. Batafsil qarang: "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 27-aprel.
6. "Turkiston viloyatining gazeti". 1872-yil 13-fevral.
7. Mahramdin kelgan xabar. Turkiston viloyati gazeti. 1875-yil 28-avgust.
8. Nazirxon So'fibek o'g'li. Po'latabek voqeasi xususida. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 20-mart.
9. Namangan shahrida yotg'on Rossiya askalaridan kelgan xabar. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 28-oktyabr.
10. Turkiston general-gubernatorin ishlarin saramjon qilib turg'uvchining farmoyishlari. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 14-iyun.
11. Xo'janddin kelgan xabar. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 28-avgust.
12. Xo'qand viloyatig'a borg'on askarlar sardori fon Kaufman bilan yurib jangu jadal qiladurg'on askarlarga Mingbuluoq mavzeyida qilg'on farmoyishlari. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 20-sentyabr.
13. Xo'qand viloyatig'a borib kelgan elchini xabari. "Turkiston viloyatining gazeti". 1871-yil 15-yanvar.
14. Xo'qand viloyatining bezovtaligi xususida. Turkiston viloyati gazeti. 1875-yil 19-avgust.
15. "Turkiston viloyatining gazeti". 1872-yil 13-yanvar.
16. "Turkiston viloyatining gazeti". 1872-yil 15-dekabr.
17. "Turkiston viloyatining gazeti". 1872-yil 20-mart.
18. "Turkiston viloyatining gazeti". 1873-yil 27-aprel.
19. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 10-dekabr.
20. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 10-sentyabr.
21. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 11-oktyabr.
22. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 19-avgust.
23. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 20-oktyabr.
24. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 28-avgust.
25. "Turkiston viloyatining gazeti". 1875-yil 29-sentyabr.
26. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 10-mart.
27. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 16-fevral.
28. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 20-avgust.
29. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 20-mart.
30. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 5-may.
31. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 5-fevral.
32. "Turkiston viloyatining gazeti". 1876-yil 8-yanvar.
33. "Turkiston viloyatining gazeti". 1877-yil 15-mart.
34. "Turkiston viloyatining gazeti". 1881-yil 14-fevral.